

# “Mehr daftari”dagi yana bir yosh uy-joyli bo’ldi

Yurtimizda yetim va ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarga qaratilayotgan alohida e’tibor va mehr-muruvvat sabab, bugun “Mehr daftari”ga kiritilgan, “Mehribonlik uyi”dan keyin Termiz davlat universiteti yotoqxonasida yashab kelgan Valijon Ravshanov o’zining uy-joyiga ega bo’ldi.

Bugun viloyat hokimligi, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi hamda boshqa mutasaddilar ishtirokida o’tgan tadbirda Valijonga Termiz shahri “Guliston” mahallasidagi ko’p qavatli turar-joylarning birida joylashgan, zamonaviy shart-sharoitlar bilan ta’minlangan, yangi 2 xonali xonadon kaliti va hujjatlari tantanali topshirildi.

Termiz davlat universitetini bitirayotgan, yangi uy-joyli bo’lgan Valijon davlatimiz tomonidan ko’rsatilayotgan g’amxo’rlikdan minnatdor ekanligini bildirdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)